



JALOLIDDIN MANGUBERDI HALOKATIDAN SO'NG YAQIN SHARQ VA MISRDA QOLGAN XORAZMLIKLARNING SIYOSIY-HARBIY FAOLIYATI (1231-1260)

Raximboyeva Nodira Urazmatovna

Urganch davlat universiteti magistranti

rahkimboyevanodira98@gmail.com

+998992534214

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20373521>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 11-may 2026 yil

Ma'qullandi: 15-may 2026 yil

Nashr qilindi: 25-may 2026 yil

KEY WORDS

Jaloliddin Manguberdi,
xorazmliklar, Yaqin Sharq, Misr,
Ayyubiylar, salibchilar, Quddus,
Harbiya jangi, Sayfiddin Qutuz,
Ayn-Jalut jangi

ABSTRACT

Ushbu maqolada Jaloliddin Manguberding 1231-yildagi halokatidan so'ng uning harbiy qismlari va Xorazmshohlar davlatining parokanda bo'lib ketgan askariy kuchlarining Yaqin Sharq va Misrdagi siyosiy-harbiy faoliyati XIII asrning o'rtalariga oid yozma manbalar va zamonaviy tadqiqotlar asosida tahlil qilingan. 1237-1244-yillarda xorazmliklar Ayyubiylar bilan ittifoq tuzib Quddusni salibchilardan tortib olgani, 1244-yilgi Harbiya jangi, 1246-yilda xorazmiylar otryadlarining tarqab ketishi, shuningdek Sayfiddin Qutuzning Misrda Mamluklar davlati taxtiga ko'tarilishi va 1260-yilgi Ayn-Jalut jangi to'g'risidagi ma'lumotlar yangi ilmiy asosda ko'rib chiqilgan.

Kirish. XIII asrning birinchi yarmi Yaqin va O'rta Sharq tarixida tengsiz o'zgarishlar davrini tashkil etadi. Xorazmshohlar davlatining mo'g'ullar tomonidan vayron etilishi mintaqada katta etno-siyosiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Davlatni oxirgi lahzalargacha himoya qilgan Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi 1231-yilda Diyorbokr yaqinida halok bo'lganidan so'ng uning harbiy kuchlari va davlatning parokanda askariy otryadlari Yaqin Sharqning turli hududlariga tarqalib ketdi. Mazkur masala tarixshunoslikda ko'pincha ikkinchi darajali mavzu sifatida ko'rilgan va Jaloliddin Manguberding shaxsiy tarixi bilan bog'liq tadqiqotlar doirasida muxtasar yoritilgan [1].

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqotda XIII asr Yaqin Sharq tarixini yorituvchi bir qator yozma manbalardan foydalanildi. Xorazmshohlar davlatiga bevosita aloqador asosiy manba sifatida Shihobiddin an-Nasaviyning "Siyrat as-Sulton Jalol ad-Din Mengburni" asaridan [8] foydalanildi. Ibn Bibining "Al-Avamir al-Aloiyya" asari [9] Kichik Osiyodagi va Yaqin Sharqdagi xorazmliklar harakatlari haqida keng ma'lumot beradi. Misr tarixi masalalarida Maqriziyning "Xitat" [10] va "Suluk" asarlari, Ibn Tag'riberdiyning "Nujum az-Zahira" asarlari asosiy manba bo'lib xizmat qildi [11].

Zamonaviy tadqiqotlar orasida Ziyo Bunyodovning "Anushtegin Xorazmshohlar davlati (1097-1231)" [12], Ibrohim Qafaso'g'lining "Xorazmshohlar davlati tarixi" [13], Oydin Tonariyning "Jaloliddin Xorazmshoh va uning davri" [14] asarlari, shuningdek Hasan

Geyiko'g'lining Anadolu va Yaqin Sharqdagi xorazmliklar tarixiga bag'ishlangan maqolalari [15] hamda D.M. Timoxinning tadqiqotlari [16] alohida ahamiyatga ega.

Tadqiqotning metodik uslublari. Tadqiqotda tarixiylik, qiyosiy tahlil, manbashunoslik va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Manbalarning ma'lumotlari o'zaro solishtirildi, ziddiyatli nuqtalar esa zamonaviy tadqiqotlar yordamida aniqlandi.

Muxokama va natijalar. Jaloliddin Manguberdi 1231-yil avgust oyida Diyorbakr yaqinidagi tog'lik hududda kurd qaroqchilari tomonidan o'ldirildi. Uning halokati xabari yoyilgach, Jaloliddin davlatining harbiy potensiali umuman barbod bo'ldi degan tasavvur paydo bo'ldi. Ammo tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki, uning sarkardalari va askariy otryadlari shundan keyin ham bir necha o'n yillik davomida mintaqaning siyosiy-harbiy manzarasida faol ishtirok etdi [2]. Jaloliddin halokatidan so'ng uning harbiy qismlarining bir bo'lagi Kichik Osiyo – Anadoluda qoldi va u yerda bir nechta mustaqil turkiy bekliklarga asos soldi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, Kayi urug'i – keyinchalik Usmoniylar sulolasiga asos solgan turkiy guruh Jaloliddin Manguberdining harbiy tarkibida Anadoluga kirib kelgan edi [13]. Osmon Yorulmaz va Hasan Geyiko'g'lining tadqiqotlari Anadoluda qolgan xorazmliklarning etnik tarkibini, ularning mahalliy xalqlar orasiga qo'shilish jarayonini batafsil yoritadi [15].

Bu davrda Yaqin Sharqda Ko'niya Saljuqiylari, bir nechta Ayyubiy amirliklari, Bog'dod halifaligi va Halab, Damashq, Misr kabi yirik davlatlar mavjud edi. Mo'g'ullarning tobora g'arbga surilishi va Salibchilarning "muqaddas zamin" uchun kurashi mintaqada beqaror siyosiy vaziyatni yaratgan edi. Xuddi shu beqarorlik xorazmiy askariy otryadlarning yangi ittifoqchi izidan janub tomon – Suriya va Falastin yerlariga siljishiga zamin hozirladi [5]. Ayyubiylar sulolasining Misr sultoni as-Solih Ayyub (1240-1249) mo'g'ullarning g'arbiy yurishlaridan hayiqayotgan Damashq Ayyubiylari va Frank davlatlariga qarshi kuchli harbiy ittifoqchi izlayotgan edi. Bu vaziyatda xorazmiy askariy otryadlari – ular soni manbalar bergan ma'lumotlarga ko'ra 10 000 dan 15 000 gacha kishiga yetgan, uning uchun mos harbiy kuch bo'lib ko'rindi [9]. Maqriziyning ma'lumotiga ko'ra, as-Solih Ayyub xorazmliklarga Xarron va uning atrofidagi yerlarni vatan qilib berdi va Barakatxonni ularning rahbari deb tan oldi [10].

1244-yil yozida Misr Ayyubiylarining buyrug'i va xorazmiylar kuchi Falastinga yurish boshladi. Ibn Bibi bergan ma'lumotlarga ko'ra, xorazmiylar 1244-yil iyun-iyul oylarida Quddusni qamal qildi va shaharni egallab oldi [9]. Quddus 1229-yildan buyon German imperatori Fridrix II ning tinchlik shartnomasi asosida xristian davlatlari nazoratida bo'lgan edi. Xorazmiylar Quddusni ishg'ol qilishi Yaqin Sharqda ulkan tarixiy voqea bo'ldi, shahar bundan keyin 1917-yilga qadar musulmon hokimiyati ostida qoldi [7; 18].

G'arb manbalari bu voqeani ancha boshqacha tavsiflaydi. Masalan, Edvard Gibbonning 1870-yilda nashr etilgan asarida "Quddusda xristianlar sonini ko'paytirish uchun harakat qilinayotgan bir vaqtda kutilmaganda sharqdan g'alati va vahshiy bir qo'shin kelib Quddusni egallab oldi" degan yozuv mavjud [18]. Ammo musulmon manbalari bu voqeani Xorazmshohlar kuchlarining Yaqin Sharqdagi eng muvaffaqiyatli harbiy amaliyotlaridan biri sifatida baholaydi [9; 10; 11]. 1244-yil 17-oktabrda G'azzadan shimolda joylashgan Harbiya (yevropalik manbalarda "La Forbie" yoki "Forbiya") yaqinida katta jang bo'lib o'tdi. Jangda Misr Ayyubiylari va xorazmiy otryadlar ittifoqi bir tomonda, salibchilar (Ierusalim qirolligi, tamplierlar, gospitalerlar) va Damashq Ayyubiylari ittifoqi ikkinchi tomonda jang qildi. Manbalarning ma'lumotlariga ko'ra, xorazmiylar jangda avangard vazifasini bajarib dushman qatorini yorib o'tishda asosiy ro'l o'ynadi [9; 10; 15]. Natijada Misr-Xorazm ittifoqi to'liq g'alaba qozondi.

Biroq g'alabadan ko'p o'tmay xorazmiylar va Misr Ayyubiylari o'rtasida ixtilof paydo bo'la boshladi. Tarixiy manbalar bu ixtilofning sababini turlicha izohlaydi. 1246-yilga kelib as-Solih Ayyub o'zining sobiq ittifoqchilari – xorazmiylarga qarshi harbiy yurish uyushtirdi. Manbalar bergan ma'lumotlarga ko'ra, xorazmiylar mag'lubiyatga uchradi va ularning asosiy otryadlari tor-mor etildi [10; 12]. Jaloliddin Manguberdi asos solgan askariy kuch shu tariqa rasman tarix sahnasidan chekindi. Xorazmiylarning rasmiy askariy kuchi tugagandan so'ng ham Xorazmshohlar sulolasining bir vakili Yaqin Sharq tarixida alohida iz qoldirdi. U Sayfiddin Qutuz edi. Manbalar uni Xorazmshohlar sulolasiga mansub deb ko'rsatadi: Ibn Tag'riberdiy uning Ala ad-Din Muhammad Xorazmshohning jiyani ekanligini yozadi [11]. D.M. Timoxinning tadqiqotlari bu qarindoshlik masalasini yanada batafsil ko'rib chiqib, uni Xorazmshohlar xonadonining vorislaridan biri deb xulosa qiladi [16].

Qutuz yoshligida asir tushib Misrga keltirilgan, keyinchalik esa Mamluklar otryadida harbiy xizmatga o'tib, mahorati va mardligi tufayli yuqori lavozimlarga ko'tarildi. 1259-yilda Misrda ichki to'ntarishdan foydalanib, u davlatning boshiga o'tirdi. Bu voqea manbalarda "Xorazmshohning jiyani mamluklar sultoni bo'ldi" deb muhim tarixiy hodisa sifatida baholanadi [6; 11]. Sayfiddin Qutuzning eng buyuk g'alabasi 1260-yil 3-sentabrda Falastinning shimolida Ayn Jalut ("Yorlitosh bulog'i") yaqinida bo'lib o'tdi. Bu jangda Qutuz boshchiligidagi Misrlik Mamluklar mo'g'ullarning Xulagu xon qo'mondonligidagi Ilxoniyalar qo'shinidan ajralib chiqqan otryadni tor-mor etdi. Mo'g'ullarning sharqdan g'arbga to'xtovsiz bostirib kirishi birinchi marta sezilarli ravishda to'xtatildi [6; 7; 12]. Shu tariqa Xorazmshohlar sulolasidan chiqqan Sayfiddin Qutuz Islom dunyosini mo'g'ul xavfidan himoya qilishdagi tarixiy ro'l bajardi [16].

Xulosa. 1231-1260-yillarda Yaqin Sharq va Misrda xorazmliklarning faoliyati tarixi quyidagi asosiy xulosalarni beradi:

Jaloliddin Manguberding halokati xorazmiylarning harbiy salohiyatini darhol bartaraf etmadi, uning sarkardalari va askarlari Yaqin Sharqning siyosiy maydonida kamida 1246-yilgacha mustaqil kuch sifatida ishtirok etdi. Xorazmiylar 1244-yilda Quddusni salibchilardan qaytarib olishda hal qiluvchi harbiy ro'l o'ynadi va Harbiya jangida Misr Ayyubiylari ittifoqchisi sifatida buyuk g'alaba qozondi. Xorazmiylarning 1246-yilda Misr Ayyubiylari tomonidan tor-mor etilishi ularning mustaqil askariy kuch sifatidagi oxirgi bobi bo'ldi. Biroq ularning siyosiy-etnik ta'siri Misrda Mamluklar davlati orqali davom etdi.

Sayfiddin Qutuz – Xorazmshohlar sulolasining vakili bo'lib, 1259-yilda Misrda Mamluklar davlatining hukmdoriga aylandi. Uning 1260-yilgi Ayn Jalut jangidagi g'alabasi mo'g'ullarning g'arbga to'xtovsiz bostirib kirishini to'xtatib, tarixda burilish nuqtasi bo'ldi. Demak, Jaloliddin Manguberding halokati bilan Xorazmshohlar davlatining tarixi tugamadi. Uning kuchlari va avlodlari XIII asr Yaqin Sharq tarixini yanada o'nlab yilga belgiladi. Bu tarixiy jarayonni O'zbekiston milliy tarixshunosligida alohida va tizimli o'rganish zarur va dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Masharipov Q. Jaloliddin Manguberding jahon siyosiy va harbiy tarixidagi o'rni. – Toshkent: Yoshlar mediaprint, 2021. – 256 b.
2. Timoxin D. Sopernik Chingizxana. – Moskva: MBA, 2013. – 432 s.
3. Bunyodov Z. Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1998. – 225 b.

4. Abdirimov B. Jaloliddin Manguberding mo'g'ullarga qarshi kurashi va uning halokatidan so'ng Yaqin va O'rta Sharqda qolgan xorazmlilar taqdiri: tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Urganch, 2022. – 210 b.
5. Abdirimov B., Sajjad V. Jaloliddin Manguberdi Pokistonda. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 320 b.
6. Runciman S. A History of the Crusades. Vol. III: The Kingdom of Acre and the Later Crusades. – Cambridge: Cambridge University Press, 1954. – 530 p.
7. Saunders J.J. The History of the Mongol Conquests. – London: Routledge and Kegan Paul, 1971. – 275 p.
8. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti // Matyoqubov K. tarjimai. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. – 288 b.
9. Ibn Bibi (Nasir ad-Din Husayn ibn Muhammad). Al-Avamiir al-Aloiyya fi-l-umur al-Aloiyya // Turk. ter. M. Öztürk. – Ankara: Kültür Bakanlığı, 1996. – 814 s.
10. Maqriziy. Kitob as-Suluk li-ma'rifat duval al-muluk. Jild I // Nashr: Mustafu Ziyoda. – Qohira: Matbaat lajnat at-ta'lif va tarjima va nashr, 1936. – 564 b.
11. Bunyatov Z. Gosudarstvo Xorezmshaxov-Anushteginidov. 1097–1231 gg. – Baku: Elm, 1999. – 240 s.
12. Qafaso'g'li I. Xorazmshohlar davlati tarixi / Rahim N. tarjimai. – Toshkent: Navruz, 2016. – 312 b.
13. Tonariy O. Jaloliddin Xorazmshoh va uning davri / Muhammad Sharif B. tarjimai. – Toshkent: Sharq, 1999. – 264 b.
14. Geyikoğlu H. Harzemliler'in Türkiye Selçuklularına İlticası ve Anadolu'daki Faaliyetleri // Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi. – 2007. – № 33. – S. 1–22.
15. Timoxin D.M., Tishin V.V. Proisxojdenie Terken-xatun, materi xorezmshaxa Ala ad-Dina Muxammada: k probleme sootnosheniya etnonimov // Materialy II nauchnoy konferensii. – Astana: NIS "Desht-i-Kipchak", 2018. – S. 34–61.
16. Yorulmaz O. Moğol İstilasası Sonrası Kanklılar/Kanklılar // Bilig. – 2007. – № 40. – S. 205–222.
17. Gibbon E. The Crusades. – London: W. Smith, 1870. – 178 p.
18. Ach Adi Minhad. Manajemen Strategi Saifuddin Qutuz di Perang Ain Jalut: Perspektif Thomas L. Wheelen. – [Malayziya], 2018. – 89 b.
19. Boas A.J. Jerusalem in the Time of the Crusades: Society, Landscape and Art in the Holy City under Frankish Rule. – London; New York: Routledge, 2005. – 288 p.